# E ’ L O N !

**03.06.22 KUNI SOAT 11.30(3-JUFTLIK) DA A.QODIRIY NOMLI JDPI «TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI» KAFEDRASINING**

**KATTA O’QITUVCHISI T.T OLTMISHEVNING «TASVIRIY SAN’AT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI» BAKALAVRIAT TA’LIM YO’NALISHI 1020-19-GURUH TALABALARI BILAN AKADEMIK QALAMTASVIR ASOSLARI FANIDAN**

## ”Odam gavdasini akademik qalamtasvirini ishlash”.

**MAVZUSIDAGI OCHIQ DARSI BO’LADI.**

**OCHIQ DARSGA KIRISHNI XOHLOVCHI PROFESSOR-O’QITUVCHILAR TAKLIF ETILADI.**

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasining navbatdan tashqari yig'ilishi bayonnomasidan

**KO'CHIRMA**

Jizzax shahri

**03.06.22**

**QATNASHDILAR:** Pardayev B - kafedra mudiri, dos. K.Zoyirov, kat. Oltmishev T, kat.o'qit .Boymirzaeva O , Xudoynazarova O', Raximov A , Xudoyberdiyev P, Soliyev J, O'taboyev B,Xudoyberdiyev M,Nurnazarov X.

**Kun tartibi:**

Katta o'qituvchi Oltmishev Toxirjonning Akademik qalamtasvir asoslari fanidan**"Odam gavdasini akademik qalamtasvirini ishlash"** mavzusidagi ochiq darsi muhokamasi.

**ESHITILDI:**

Katta o'qituvchi Oltmishev Toxirjonning "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasi 3-bosqich 1020-19-guruhida 3-jutflikda o'tkazgan **"Odam gavdasini akademik qalamtasvirini ishlash"** mavzusidagi ochiq darsi.

Yig'ilish raisi – B. Pardayev yig'ilish ishtirokchilaridan ochiq dars haqida fikr-mulohazalarini bildirishni so'radi.

**SO'ZGA CHIQDILAR:**

Xudoyberdiyev P (kat.o'qit.) . Dars o'z vaqtida belgangan honada boshlandi. Xona amaliy mashg'ulotga tayyor holatda mashg'ulot uchun kerakli ko'rgazmali qurollar va jihozlar mavjud. O'qituvchi tashkiliy qismni to'g'ri tashkil qildi. O'qituvchi mavzuni e'lon qildi. Mavzu bo'yicha bajariladigan amaliy ishni bajarish bo'yicha talabalarga ko'rsatma berdi. O'qituvchi doskadan unumli foydalandi. Mavzuga asoslangan xolda ketma-ketlik asosida doskada ko'rsatdi bosqich haqida tushuncha berdi.

O'qituvchi mashg'ulotda ushbu mavzuni qiziqarli qilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarda foydalangan holda tushuntirib berdi va talabalarni odam gavdasini qisqa muddatli rang lavxasini bajarishni ketma-ketlik asosida mustaqil chiza olishga o'rgatdi.

Nurnazarov X. (o'qit.) – Men ochiq darsga alohida qiziqish bilan ishtirok etdim. Ma'lumki, dastgohli rangtasvir fani tasviriy san'at fani ichida muxim axamiyatga ega. Talabalar bu fanga aloxida qiziqish bilan qaraydilar. O'qituvchi mashg'ulotda ushbu mavzuni qiziqarli qilib, zamonaviy pedagogik

texnologiyalarda foydalangan holda tushuntirib berdi va talabalarning har biri bilan individual shug'ullanib, ularning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirdi.

O'taboyev B. (o'qit.) –O'qituvchi ochiq darsni yaxshi tashkil qila oldi. Mavzu yuzasidan ketma-ketlik, konstruktiv qurish haqida misollar orqali keng tushuncha berib o'tdi. Shu nuqtai nazardan qaraganda Oltmishev Toxirjonning o'tgan ochiq amaliy mashg'uloti barcha talablarga javob beradigan namunali dars bo'ldi desam mubolag'a bo'lmaydi deb o'ylayman. Biz Oltmishev Toxirjonni ko'p yillik boy tajribaga ega o'qituvchi sifatida bilamiz. Amaliy mashg'ulotda biz havas qiladigan va o'rganadigan uslubiy jihatlari ko'p. Ayniqsa o'qituvchi ochiq darsda yangi pedagogik texnologiyani qo'llash mahorati alohida tahsinga sazovor deb bilaman.

Shuningdek, yuqorida so'zga chiqqan o'qituvchilarning fikrlarini qo'llab-quvvatlab Oltmishev Toxirjonning ochiq darsni qoniqarli deb baholashdi.

Yig'ilish raisi – B. Pardayev o'qituvchi Oltmishev Toxirjonning ochiq darsi haqida kafedra a'zolarining fikr-mulohazalarini eshitdik. Ular barchasi ochiq dars haqida ijobiy fikr bildirishdi. Ular ochiq amaliy mashg'ulot darsi qoniqarli deb baholashni taklif etishdilar.

Kafedra a'zolari bir ovozdan amaliy mashg'ulotni qoniqarli deb baholashdilar.

Kafedra umumiy yig'ilishi ko'rilgan masalani muhokama qilib

**QAROR QILADI:**

1. Katta o'qituvchi Oltmishev Toxirjonning "Akademik qalamtasvir asoslari fanidan "Odam gavdasini akademik qalamtasvirini ishlash". mavzusidagi ochiq darsi qoniqarli deb hisoblansin.

Yig'ilish raisi: B. Pardayev

Kotibi: o'qit. O'.Xudoynazarova



## ОЧИҚ МАШҒУЛОТЛАР ТАҲЛИЛИ ВАРАҚАСИ

Фаннинг Академик қаламтасвир номи 3.06.2022 Сана

Педагогнинг Ф.И.Ш Олтмишев Тоҳир

Аудитория 106 Факультет

Гурух 1020-19 Босқич 3 Таълим йўналиши Тасвирий санъат М.Г.

Талабалар сони 23 нафар, қатнашди нафар

Қатнашмади нафар

Машғулотни кузатишдан мақсад:

Метод алмашиш, метод ўрганиш

Машғулот тури (назарий, амалий семинар, лаборатория) Амалий

Ўқув-меъёрий ҳужжатлар, фаннинг ишчи дастури бор тақвим бор режа

Фан бўйича ЎУМ бор топшириқлар тўплами бор

Мавзу: Одам гавдасини академик қаламтасвирини ишлаш

1.Ташкилий қисмнинг тўғри ўтказилганлиги (5 балл): Ташкилий қисм тўғри ўтди 5

2. Аудиториянинг жиҳозланганлик даражаси (ахборот-коммуникация технологиялари, кўргазма материаллар ва жиҳозлар билан таъминланганлиги (5 балгача) Аудитория кўргазмали қуроллар билан жиҳозланган. 5

3.Ўқув фаолияти мотивациясининг тўғри олиб борилиши (талабалар диққатини мавзуга қаратилиши: дарс мақсадлари, дарс режаси, мавзуни хаёт билан боғланганлиги, замон талабаларига мослиги, мавзунинг амалиёт билан боғланганлиги) (15 балгача) Ўқув фаолияти мотивацияси тўғри олиб борилган. Дарс режаси, мавзуни хаёт билан боғланган, замон талабларига мос. 15

4. Машғулот давомида қўлланган замонавий таълим техналогиялари (талабалар таянч билимларини такомиллаштиришда қўлланган усуллар ва уларнинг фаоллиги) (10 балгача) Замонавий технологиялардан "Қандай", "Блис сўров", БББ лардан фойдаланди. 10

5. Янги мавзуни тушунтириш (назарий машғулотда фанни илмий-назарий жиҳатдан эгаллаганлиги ва уни талабаларга етказиб бера олганлиги, амалий, семинар ёки лаборатория машғулотларида тажрибаларни бажариш ва натижа олишни тўғри тушунтириш даражаси) (20 балгача) Ўқитувчи янги мавзуни талабаларга тўлиқ тушунтириб бера олди, уларни дарсга қизиқтира олди 18

6. Ўзлаштирилган билимларни мустаҳкамлаш (қўлланилган усуллар) (10 балгача): Одам гавдасини академик қаламтасвирини бажаришда. Ўқув тўғри қоралама лар чизишдан бошланди 10

7. Уйга вазифа бериш (мустақил таълим топшириқлар) (5 балгача) Одам гавдасини академик қаламтасвирини чизиш 5

8. Режадаги масалаларнинг қамраб олинганлик даражаси ҳамда педагог томонидан қўйилган мақсадга эришилганлиги (10 балгача) Педагог томонидан қўйилган мақсадга эришилди. 10

9. Утилган машғулот юзасидан таклифлар: Кенг ва ёруғ аудиторияда машғулот олиб борилса янада мақсадга мувофиқ бўлар эди.

10. Педагог ходимнинг ютуқлари: Педагог ўз фанининг мутахассиси, Талабаларни машғулотга қизиқтира олди. Педагог ўз нутқига эга, тажрибали

11Машғулотнинг камчмликлари: Дарс ўтилаётган аудитория „академик қаламтасвир" дарсини ўтишга мос эмас. Аудитория кенг ва ёруғ бўлганда мақсадга мувофиқ бўлар эди

Педагог ходим томонидан тўпланган умумий балл (80 баллгача) 78 б

Дарс кузатувчи: [подпись] Ч. Худойназарова.
(Фамилияси, исми, шарифи имзоси)

Машғулот ўтган педагог ходимнинг имзоси: [подпись]